

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova | 272 |
| Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi..... | 272 |
| A.K.Ergashev | |
| Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida)..... | 277 |
| R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova | |
| O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi..... | 282 |

ILMIY AXBOROT

| | |
|--|-----|
| D.I.Ibragimova | |
| Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya | 290 |
| Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova | |
| Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish | 293 |
| A.A.Ergashev | |
| Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi | 298 |
| I.Rustamov | |
| Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli | 302 |
| M.Nasridinova | |
| Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'rni..... | 306 |
| M.V.Nasridinov | |
| Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni | 310 |
| G.O.Shaxbazova | |
| Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati | 315 |
| N.N.Norxo'jayeva | |
| Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni..... | 318 |
| D.R.Ismoilova | |
| Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni | 322 |
| D.B.Toshpo'latova | |
| Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv..... | 326 |
| M.Ф.Рахмоналиева | |
| Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института..... | 332 |
| M.F.Adasheva | |
| Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida | 336 |
| U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva | |
| O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli | 340 |
| M.A.Abdujalilova | |
| Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes | 348 |
| U.T.Isakov | |
| O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari..... | 351 |
| U.U.Xolova | |
| Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf | 356 |
| T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'apporov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov | |
| O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqlash tahlillari | 360 |
| Y.Y.Turakulov | |
| Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari..... | 366 |



УО'К: 371.13:37.02

**PEDAGOGIK AMALIYOT JARAYONIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY O'Z
O'ZINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ САМОРАЗВИТИЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ В ПРОЦЕССЕ
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

**PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS IN THE PROCESS
OF PEDAGOGICAL PRACTICE AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

Adasheva Matluba Fazliddin qizi 

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalarining maktabgacha ta'lif yo'nalishida tafsil olayotgan talabalarining pedagogik amaliyot jarayonida kasbiy jihatdan o'z o'zini rivojlanirish malakalarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgan. Bu esa o'z navbatida ushbu soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosan ta'lif tizimiga ilm-fandagi yangiliklarni joriy etish asosida maqsadli innovatsiyalarni ishlab chiqish, yuqori salohiyatlari kadrlar tayyorlash samarasini oshirish, talaba yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются об особенностях профессионального саморазвития умений студентов, обучающихся в дошкольных образовательных учреждениях высших учебных заведений, в процессе педагогической практики. Это в свою очередь, имеет большое значение в развитии данной области. Развитие целевых инноваций, основанных на внедрении инноваций науки в систему образования, повышении эффективности подготовки высокопотенциальных кадров, всесторонней поддержке студентов и молодежи, рассматривается как актуальная проблема современности.

Abstract

This article discusses the specific characteristics of professional self-development skills of students studying in preschool education of higher educational institutions in the process of pedagogical practice. This, in turn, is of great importance in the development of this field. Development of targeted innovations based on the introduction of scientific innovations into the education system, increasing the effectiveness of training high-potential personnel, comprehensive support of students and young people are considered as urgent problems of today.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarbiyachi, kasbiy o'z o'zini rivojlanirish, pedagogik faoliyat, pedagogik amaliyot, kasbiy ko'nikma va malaka, tarbiyalanuvchi, tarbiyachilik faoliyati, kasbiy faoliyat, bo'lajak tarbiyachi, oliy ta'lif.

Ключевые слова: будущий педагог, профессиональное саморазвитие, педагогическая деятельность, педагогическая практика, профессиональные навыки и квалификация, студент, учебная деятельность, профессиональная деятельность, будущий педагог, высшее образование.

Key words: future educator, professional self-development, pedagogical activity, pedagogical practice, professional skills and qualifications, student, educational activity, professional activity, future educator, higher education.

KIRISH

Mamlakatimizda oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'lifni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lif texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlanirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish Konsepsiyasini qabul qilindi[1].

Konsepsiada oliy ta'lif tizimi oldiga ishlab chiqarish korxonalarida dars mashg'ulotlari va talabalar amaliyotini samarali tashkil etish tartibini takomillashtirish, bunda amaliy ko'nikmalarni tasdiqlovchi sertifikatlar berish tizimini joriy etish masalasining qo'yilganligi bugungi global jamiyatning zamonaviy talablari nuqtai nazaridan bo'lajak tarbiyachilarning faoliyati nafaqat yuksak

ILMIY AXBOROT

darajadagi malakalar bilan, balki axloq-odob normalari, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatda bo'lishga tayyorligi, ta'limning sifati va samaradorligini oshirish uchun bo'lajak tarbiyachilarning amaliyot jarayonida kasbiy o'z o'zini rivojlantirishning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasida "O'quv rejasida, qoida tariqasida, ta'lif jarayonining jadvali, o'qitishning boshlanishi, muddati va davriyligi, o'quv yillari, choraklar, semestrlar, amaliyot, ta'llilar hamda attestatsiya, ajratilgan haftalar soni, o'rganiladigan fanlar (modullar) va ularga ajratilgan soatlar (kreditlar) hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi.[2]

Mazkur qonunning professional va oliy ta'lif, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir o'quv rejalarda ta'lif oluvchilar uchun amaliyot o'tash nazarda tutiladi.

Ta'lif oluvchilarning amaliyotni o'tash tartibi va uni tashkil etish ta'lif sohasidagi vakolatlari davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi". deyilgan.Ta'lif oluvchilar kasbiy ko'nikma va malakalarni mukammal egallab borishlari uchun o'quv rejalarini bajarishlari va ma'lum bir fanlarning o'quv dasturlarida keltirib o'tilgan o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tegishli tashkilotlarda amalgalash oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lif sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga[3] muvofiq 2022-2023-o'quv yilidan boshlab pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lif muassasalari kunduzgi ta'lif shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lif muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiyl o'rta ta'lif muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash to'g'risida so'z yuritilgan. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z o'zini rivojlantirish orqali kasb tayyorgarligiga erishishda pedagogik amaliyotning ahamiyati katta hisoblanib, amaliyot jarayonida bo'lajak kadrlar maktabgacha ta'lif tashkiloti pedagogik jamoasi bilan muloqot qilishni, kasbiy malakalarini oshirishni, tarbiyalanuvchilar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning har bir sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarning o'ziga xos kasbiy bilimlar, qonun-qoidalarni anglashi va ularga rioya qilgan holda faoliyat olib borishni ta'minlashda bo'lajak kadrlarni kasbiy o'z o'zini rivojlantirishga tayyorlashga alohida ahamiyat berilishi kerakligini belgilaydi.

Pedagogik amaliyot bo'lajak tarbiyachilar tayyorlash tizimida muhim o'rinni egallaydi. U talabalarning oliy ta'lif muassasalarida egallagan nazariy bilimlarini ularning kelajakda maktabgacha ta'lif tashkilotida amalgalash oshiradigan mustaqil faoliyati bilan birlashtiruvchi bo'g'indir. Shu munosabat bilan bu jarayonning samarali o'tishida talabalarda turli muammolar yuzaga keladi. Oliy ta'lif muassasasi talabalarining pedagogik amaliyot jarayonini muvaffaqiyatli amalgalash oshirishi va shu orqali kasbiy o'z o'zini rivojlantirishga erishish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Bunda ularning oliy ta'lifda o'qish mobaynida egallagan tayyorgarligi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli davr olimlari, tadqiqotchilar tomonidan bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy o'z o'zini rivojlantirishda turlicha qarashlar, yondashuvlar muhokama qilingan.

Uzlusiz ta'lif tizimi hamda maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyalanuvchilarini yurting kelajagi sifatida tarbiyalash borasida pedagog olimlar O.Hasanboyeva, N.Muslimov, P.Po'latova, M.Yo'ldasheva, X.Abdukarimov, M.Mahkamova, B.Rahimovalar tomonidan bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan, ilmiy asarlar yaratilgan. Ushbu asarlarga tayanib, bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik amaliyot davrida kasbiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligini payqash mumkin.

M.Mahkamova pedagogik amaliyot mazmuniga alohida e'tibor berib, "Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar xalqimizning milliy-ma'nnaviy merosidan, ulug' siyomolarning muomala odobini shakllantirishga doir ta'lifotlaridan va ilg'or zamonaviy tajribalardan foydalanishlari muhimdir"[4]. Bu berilgan ta'rifda pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilar nafaqat kasbiy jihatdan, balki ma'nnaviy-ma'rifiy jihatdan ham o'z o'zini rivojlanishib borishliliklari yuksak ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

E.F.Zeer shaxsni rivojlantiruvchi kasbiy rivojlanishning kontseptual qoidalarini shakllantirdi[5]. Ular orasida o'z-o'zini rivojlantirish jihatidan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- 1) talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi asosiy maqsad sifatida qaraladi;
- 2) talabaning o'zi ham ta'limotni o'zi yaratadi;
- 3) ta'limgardining mazmuni maqsadni emas, balki ta'limgardining vositasini tavsiflaydi;
- 4) o'qituvchilar va talabalarning hamkorligi kasbiy o'quv jarayonini to'liq tashkil etishning kalitidir.

Pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilib ko'rulganda, bo'lajak pedagog tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari yuzasidan pedagogik amaliyat modeli berilgan bo'lib, unda pedagogik amaliyat bosqichlari asoslangan va pedagogik amaliyotni tashkil etish mezonlari berilgan.[6] Bunga ko'ra malakaviy amaliyotni tashkil qilish mezonlari quyidagicha:

- malakaviy amaliyotni tarbiyalovchi xarakteri;
- malakaviy amaliyotni rivojlantiruvchi xarakteri;
- malakaviy amaliyotni mustahkamlash va rivojlantirish.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'zlarining metodika, pedagogika, psixologiya, yosh psixologiya va fiziologiya kabi fundamental fanlardan olgan bilimlariga tayanib, tarbiyalanuvchilar bilan ularning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limgardining turli faoliyatlarini faollashtiruvchi xilma xil uslublarni metod va metodik uslublarni qo'llash bilan o'tkaziladigan turli tipdagi ta'limiylariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha zarur malakalarni egallashlari hamda o'z ustilarida ishslashlari muhim talablardandir.

Talaba amaliyotchilarning maktabgacha ta'limgardining tashkilotlarda ma'lum yosh guruhi tarbiyachisining ishlarini bajarishga, shuningdek pedagogik jamoa va bolalar hamda yoshlar tashkilotlari bilan ishslashga, undan tashqari tarbiyalanuvchilar bilan yakka va ommaviy tarzda tarbiyaviy ishlar olib borishga o'rganishlari ham muhim vazifa sifatida e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Bu vazifani bajarish bo'lajak tarbiyachilardan yuqori g'oyaviy va kasbiy tayyorgarlikni hamda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashning nazariy metodikasini bilishni va tegishli tarbiyaviy va o'quv ko'nikma hamda malakalarga ega bo'lishni talab qiladi. Bunga esa doimiy ravishda o'z o'zini rivojlantirib borish orqali erishish mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma'lumki, bo'lajak maktabgacha ta'limgardining tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy jihatdan o'z o'zini rivojlantirishda pedagogik amaliyotni turli yondashuvlarga tayanib, bir butunlikda tashkil etilsa samarali natijaga erishish mumkin bo'ladi. Ya'ni kasbga yo'naltirish, shu kasbga nisbatan layoqati borlarni tanlash va kasbga tayyorlash borasida tashkil etiladigan pedagogik amaliyot borasidagi barcha ishlarini uzviy bog'liq holda amalga oshirilsa va shu chora-tadbirlarning har biri pog'onama pog'ona talaba yoshlarni ta'limgardining tashkillashtirilishiga erishilsagina, u bir butun sistema sifatida natijaga erishadi.

Zamon talablariga har jihatdan javob beradigan tarbiyachini tayyorlash uchun nafaqat umumiyligi va kasbiy malakalarni shakllantirish, balki oliy ta'limgardining o'qish paytida, shuningdek pedagogik amaliyot davrida ham kasbiy pedagogik malakalarini o'z o'zini rivojlantirish orqali takomillashtirish uchun sharoit yaratish ustida ishslash kerak.

Ular quyidagi shartlar bajarilganda amalga oshishi mumkin:

1. Ta'limgardining qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga, shuningdek yaratilgan qadriyat pozitsiyalariga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga katta e'tibor bering;
2. bo'lajak tarbiyachilarda qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga, shuningdek yaratilgan qadriyat pozitsiyalariga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga katta e'tibor bering;
3. o'quv jarayonidagi ma'muriy uslubdan voz kechish, bo'lajak tarbiyachilarga ijodiy salohiyatini, shaxsiy tashabbusini ro'yobga chiqarish uchun maksimal erkinlik berilishi;
4. bo'lajak tarbiyachilarda ularning rivojlanishiga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish, bu kasbiy rivojlanishning eng muhim omili – muvaffaqiyat hisoblanadi.

XULOSA

ILMIY AXBOROT

Bugungi kunda ma'nnaviy yetuk va yuksak salohiyatlari tarbiyachilarini tayyorlash davlat siyosati darajasidagi muammo ekanligi, bunda bo'lajak mакtabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etishi, bu jarayonni amalga oshirishda pedagogik amaliyotga jiddiy e'tibor berish zarurligi ma'lum bo'ldi.

Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy malakalarini oshirishlarida pedagogik amaliyotning o'rni beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Har bir pedagog qanday qobilyatlarga ega bo'lishi va gnostik malakalar, konstruktiv malakalar, kommunikativlik, tashkilotchilik malakalarni egallahda pedagogik amaliyot jarayonida muhim ahamiyatga ega. Albatta shuni ham aytish zarurki, talabalarning o'quv davri mobaynida egallagan kasbiy ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash uchun hamda shaxsiy va kasbiy o'z o'zini rivojlantirish uchun ham eng qulay fursat aynan shu pedagogik amaliyot jarayoni hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yil. PF-5847-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637. 2020-yil 23-sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 289-soni Qarori.
4. Mahkamova M. Qadriyat va tarbiya. Ilmiy to'plam. T.1992. 15 bet.
5. Зеер Э.Ф. Личностно-развивающие технологии начального профессионального образования. М.:Академия, 2010.176 с.
6. Qodirova Z.S. Zamonaliv yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil_7-son. 830-833.